

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Boshlang'ich talimda texnologiya fanining o'rni va ahamiyati.

SHoymardonova Yodgoraoy Zokir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-23-guruh talabasi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun texnologiya fanining ahamiyati, texnologiya fanining o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad hamda bolaning aqliy rivojlanishda texnologiya fanining o'rni haqida so'z yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR: Texnologiya, dars, integratsiya, ko'rgazmali qurollar, innavatsiya, metod, mazaika, aplekatsiya.

Mehnat tarbiya bu bola hayotida juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Mehnat tarbiyasiga yangi kirib kelayotgan texnologiyalar va o'quvchilar tomonidan egallagan bilimlarni amaliy jarayonda ham tadbiiq etish bu hozirgi kundagi o'quvchi olayotgan nazariy bilimi bilan cheklanib qolgani yo;q. U olayotgan bilimnamaliyotda bemalol qo'llay olish imkoniyatiga ega. Bu usul o'quvchilarning intellektual salohiyatini mustaqil fikrlashni yanada oshirish uchun xizmat qilqdi. Texnologiya darslarning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Texnologiya so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, „techno“ luenar, usta va „logos“ - fan, ta'lim degan ma'nolarni anglatadi. Texnologiya- ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo'lida yo inson muhitini o'zgartirish maqsadida qo'llanilishi hisoblanadi.

Endi biz boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini qanday tarzda tashkil etamiz? Birinchi navbatda ularga o'quv qurollari va ularning xavsizligi ya'ni qaychi belgilangan tartibdagi talabga talaba javob beradimi yoki yuqmi? Xonadagi yorug'lik qay tarzda tushayapti? Kabi savollarga yechim izlaymiz. CHunki texnologiya xonasi yorug' bo'lishi vaderazadagi nurlar chap tarafdin tushushi zarur. Bunda ishninh sifati ham yaxshilanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida kitob mavjud. Ularda asosan element ya'ni oddiygina quyvon tiprarikan, tulki yoki olma va shunga o'xshash narsalar yasash o'rgatiladi. Bu ularning yoshiga va fikrlash xususiyatiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Dastlab, ularga element yasash haqida tushuncha beriladi. Masalan: tiprarikan yasash mavzusini olaylik. O'quvchilar avval uning tikanlarini burnini oyoqchalarini, ko'zlarini yasab olishadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi ham o'quvchilarga ko'mak berishi lozim. Ishning so'ngida esa yasalgan barcha qismlar joylashtiriladi va mustahkamlanadi.

XULOSA. Agar o'qituvchi mahoratli pedagog bo'lsa, o'quvchilarga tiprarikan haqidagi biror bir ertak hikoya yoki qiziqarli voqeani aytib berishi mumkin. Ushbu vaziyatda texnologiya va o'qish savodxonligi darslarining integratsiyalashuv jarayonini ham kuzatish mumkin. Bundan tashqari o'qituvchi o'z yasagan texnologik qurollari o'quvchilarga namuna bo'la olishi lozim. CHunki o'quvchilar o'qituvchi yaratgan ko'rgazmali quroliga qarab namuna oladi va dars jarayoniga kirishadi. Texnologiya darslaridan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ulardagi mustaqil fikrlashda, dunyoqarashni kengaytirish hamda birinchi navbatda ularni meknat tarbiyasiga tayyorlash hisoblanadi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

FOTDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innavatsiya va integratsiya. R. Movlonova, N. Raxmonqulova. Toshkent-3023.
2. Xoliqova M. Talim texnologiyalaridan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim 2009-yil.